

Xulosa: Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizmning uyg'unlashuvi orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim soha hisoblanadi. U iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan qishloq hududlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizm kichik fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha daromad manbai yaratish, yangi ish o'rinlarini ochish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash va qishloq joylaridan migratsiyani kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Agroturizm kirib borgan joyga barqaror rivojlanish bo'ladi chunki agroturizm o'zida barqaror turizm elementlari mujassamlashtirgan holda hududning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi.

Jahon tajribasi, xususan, Italiyaning Toskana viloyati misolida ko'rib chiqilganidek, agroturizm hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy tiklanishida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Fermerlar uchun yangi bozorlar yaratilib, an'anaviy dehqonchilik usullari va ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Natijada, qishloq joylarida turizm bilan bog'liq xizmatlar rivojlanib, barqaror iqtisodiy o'sishga erishiladi. Agroturizm rivojlanishi barqaror iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi va mahalliy jamoalar uchun ijtimoiy barqarorlik yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab mamlakatlarda bu yondashuv muvaffaqiyatli tatbiq etilib, qishloq hududlarining jonlanishiga sabab bo'lgan.

Shunday qilib, agroturizmning rivojlanishi qishloq hududlarining barqarorligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib, iqtisodiy barqarorlik, ekologik muvozanat va madaniy merosni asrashni ta'minlovchi innovatsion yondashuv sifatida baholanadi. Shu sababli, agroturizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik chora-tadbirlar davlat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Patterson I. Aslam, M.U(2024). Agritourism as an Emerging Sustainable Tourism Industry in Uzbekistan. *Sustainability* 16,7519.
2. Ramona Ciolac , Tabita Adamov , Tiberiu Iancu , Gabriela Popescu , Ramona Lile , Ciprian Rujescu and Diana Marin (2019) Agritourism-A Sustainable Development Factor for Improving the 'Health' of Rural Settlements. Case Study Apuseni Mountains Area. *Sustainability* 2019, 11, 1467.
3. Emmanuel N. Kaitano D. (2024) Agritourism and sustainability: A global bibliometric analysis of the state of research and dominant issues. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism* 46
4. [M. Sznajder](https://cabidigitallibrary.org), [L. Przezbórska](https://cabidigitallibrary.org), [F. Scrimgeour](https://cabidigitallibrary.org). The Concept of Agritourism <https://cabidigitallibrary.org>
5. Filippo Randelli, Patrizia Romei (2013) Rural tourism driving regional development in Tuscany. The renaissance of the countryside. *British Journal of Economics Management & Trade*
6. Emmanuel Ndhlovu , Kaitano Dube (2024) Agritourism and sustainability: A global bibliometric analysis of the state of research and dominant issues. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism* 46 (2024) 10074

O'ZBEKISTONNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH ZARURIYATI Miraxmedova Kamola Fozil qizi

TDAU Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-kurs magistranti
ismoilova.zhaoxi07@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish zarurati zamon talabi hisoblanadi. Turizm sohasining global tendentsiyalari va rivojlanish usullari, mamlakatning iqtisodiy o'sishi va xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada xorijiy tajribalarning

O'zbekiston turizm sohasiga qanday ta'sir ko'rsatishi va ularni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: turizm, xorijiy tajribalar, rivojlanish, iqtisodiyot, raqobatbardoshlik.

Kirish: O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Mamlakatning boy madaniy va tarixiy merosi, tabiiy go'zalliklari, yirik shaharlari va mehmondo'st xalqi turizmni rivojlantirishda muhim omillardir. O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlari, Buyuk Ipak Yo'li, shuningdek, boy arxitektura yodgorliklari, masalan, Registon maydoni, Shah-i-Zinda, Buxoro va Xiva madaniy inshootlari sayyohlarni jalb etadi. Tabiiy go'zalliklar esa, Farg'ona vodiysi, Chimgan tog'lari, Aydar ko'llari kabi manzarali joylar bilan mashhur. O'zbekistonning mehmondo'st xalqining iliq va ochiq-oydin qabul qilish madaniyati, sayyohlar uchun unutilmas tajriba taqdim etadi.

O'zbekiston turizm sohasida jiddiy o'sish ko'rsatkichlarini ko'rsatmoqda, ammo dunyoning rivojlangan davlatlariga nisbatan hali ko'p jihatlarida orqada turadi. Biroq, so'nggi yillarda qabul qilingan siyosatlar, infratuzilmaning yaxshilanishi va xalqaro hamkorliklar yordamida bu soha tezda rivojlanishi mumkin. O'zbekistonning tarixiy boyliklari va tabiiy go'zalliklari uni kelajakda xalqaro turizm xaritalarida kuchli o'rin tutishiga imkon beradi. Turizm sohasini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish uchun xorijiy tajribalardan samarali foydalanish zarur. Xorijiy davlatlarning turizm sohasidagi muvaffaqiyatlari, ularning tajribalari va innovatsiyalarini o'rganish, O'zbekistonning turizm infratuzilmasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.


Asosiy qism: Birinchi navbatda shuni ta'kidlash joizki O'zbekiston turizmida xorijiy tajribalarning ahamiyati juda muhimdir. Dunyo miqyosida turizm sanoati rivojlanishda davom etmoqda, va ko'plab davlatlar turizm sohasida muvaffaqiyatli tajribalarni shakllantirdi. Xorijiy tajribalar, birinchi navbatda, O'zbekistonning turizm sektorini modernizatsiya qilishda, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda, yangi turistik yo'nalishlar yaratishda va xalqaro bozorlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Masalan, Fransiya, Italiya, Shveysariya kabi yevropa davlatlari hamda Xitoy, Koreya, Tailand kabi osiyo davlatlarning turizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatli strategiyalari O'zbekiston uchun muhim ko'rsatkich bo'la oladi. Fransiyaning hozirgi kunda madaniy merosi orqali turistlari jalb etishi strategiyasini O'zbekiston uchun ham qo'llasa bo'ladi. Madaniy va tarixiy obidalar Fransiya turizmining asosi bo'lib, Parij, Luvr muzeyi, Versal saroyi kabi obidalar va joylar turistik markalar sifatida yuksak reytingga ega. Fransiya o'zining boy madaniy merosi va tarixiy joylarini samarali ravishda rivojlantirgan. O'zbekiston ham o'zining boy madaniy merosi, tarixiy shaharlar (Samarqand, Buxoro, Xiva) va arxitekturasini rivojlantirishi kerak. Bu joylar, ayniqsa, "Yo'lkudog'" (Silk Road) turi bo'yicha xalqaro turizmni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Amir Temur (Tamerlan) imperiyasining poytaxti bo'lgan Samarqand o'zining go'zal me'morchiligi va tarixiy yodgorliklari bilan mashhur. Registon maydoni, Shohizinda majmuasi va Bibixonim masjidi kabi joylar bu shaharning diqqatga sazovor joylaridan sanaladi. Buxoro ham O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, uning me'morchilik obidalari va tarixiy joylari butun dunyo bo'ylab tanilgan. Buxoroning Ark qal'asi, Kalyon minorasi va Boloi-Hauz masjidi shaharning o'ziga xos tarixini aks ettiradi. Xiva shahri, xususan, Ichan-Qala, O'zbekistondagi eng yaxshi saqlanib qolgan qadimiy shaharlardan biridir. Ichan-Qala o'zining o'rta asrlar me'morchiligi va ko'plab tarixiy yodgorliklari bilan UNESCOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Amir Temurning tug'ilgan shahri bo'lgan Shahrisabzda tarixiy yodgorliklar ko'pligidan ajralib turadi. Ak-Saray saroyi va boshqa me'morchilik obidalari O'zbekistonning tarixiy merosiga katta hissa qo'shgan. O'zbekistonda ko'plab qadimiy madrasa va masjidlar mavjud. Masalan, Buxorodagi Mir-i Arab madrasa, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi va boshqa ko'plab diniy yodgorliklar O'zbekistonning ilmiy va diniy merosini aks ettiradi.

Italiyada esa turizmni diversifikatsiya qilish orqali erishilgan yutuqlarni ko'rishimiz mumkin. Italiya turizmni faqat yirik shaharlar bilan cheklamagan, balki tog'lar, qishloqlar, qirg'oqbo'yi hududlaridagi turizmni ham rivojlantirgan. Ayniqsa, gastronomiya va vino turlari

mashhur.Undan o'rnak olgan holatda O'zbekiston turizmni faqat tarixiy obidalar bilan cheklemasdan, o'zining go'zal tabiatini, tog'lar, sahro va ekologik turizmni rivojlantirishi kerak. Bundan tashqari, O'zbekistondagi gastronomiya va mahalliy an'analarning global turizmga alohida o'rnini bor.

Xitoy, Koreya va Tailand kabi Osiyo davlatlarining turizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatli strategiyalari ham O'zbekiston uchun muhim o'rnak bo'lishi mumkin. Ushbu davlatlarning turizm sohasidagi yutuqlarini o'rganish, O'zbekistonning turizm sohasini yanada samarali rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Bizga ma'lumki Xitoy yirik xalqaro brend va o'zining madaniy turizmi bilan ajralib turadi. Xitoy o'zining boy madaniy merosi, tarixiy joylari va ramziy obidalarini orqali turizmni rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo'lgan. Pekindagi Buyuk Xitoy devori, Xian shahridagi askar haykalchalar shahri va boshqa tarixiy shaharlar Xitoyning turizm markazlari bo'lib xizmat qiladi. Bizning Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar Xitoy turizmi bilan hamkorlikda global turizm bozorida tanitish uchun samarali marketing va reklama strategiyalarini ishlab chiqish orqali yanada rivojlantirilishi hamda davlat byudjediga kattagina foyda olib kelishi mumkin.

1 rasm



Janubiy Koreya texnologiya va madaniy turizmni birlashtirish Bizga ma'lumki hozirda K-POP dunyo miqyosida juda mashhur va juda ko'p yoshlarni qiziqtirayotgan industriya hisoblanadi, shu bilan birga Koreya o'zining plastik jarrohlik bo'yicha yuqori va sifatli kasalxonalari bilan ham juda ko'p ayollarni o'ziga jalb etadi, hozirda bir yilda ya'ni 2024-yil davomida O'zbekistonlik 23,9 ming nafar fuqaro Janubiy Koreyaga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan, bu o'tgan yilga nisbatan 29,1 foizga oshganini ko'rsatadi.

O'zbekiston fuqarolarining Janubiy Koreyaga tashriflarining maqsadlari quyidagicha taqsimlangan:

- * Sayohat: 16 205 kishi
- * Qarindoshlarni yo'qlash: 5 142 kishi
- * O'qish: 2 077 kishi
- * Xizmat safarlari: 427 kishi
- * Davolanish: 58 kishi

K-pop va madaniy turizm: Koreya o'zining madaniy jihatdan boy va texnologik rivojlangan turizm turlarini muvaffaqiyatli integratsiya qilgan. K-pop, Koreys dramasini xalqaro miqyosda

targ'ib qilish orqali butun dunyo bo'ylab turizmni jalb qilgan. K-pop guruhleri (masalan, BTS, BLACKPINK, EXO, TWICE) global miqyosda juda mashhur. Ushbu guruhlarning konsertlari va boshqa tadbirlari Koreya Respublikasiga turistlar oqimini olib keladi. Koreya musiqasining ommaviyligi va fanatlarining katta soni, ayniqsa Osiyo, Yevropa va Amerikada, Koreyaga sayohat qiluvchilar sonini yanada oshiradi.

- **K-pop fan sayohatlari:** K-pop fanlari Koreyaga sayohat qilish uchun maxsus paketlar yoki turistik turlarni tanlashadi. Bu turistik turlar ko'pincha K-pop guruhleri tomonidan ijro etilgan joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi, masalan, K-pop guruhlarining ofislari, studiyalari, va ularning konsert joylari.

- **Fan meet-and-greet va konsert turlari:** Koreya turizmi K-pop musiqasi tufayli "fan sayohatlari"ni ommalashtirgan. K-pop fanlari o'z sevimli guruhleri bilan uchrashish yoki ularning konsertlariga borish uchun Koreyaga sayohat qilishadi.

O'zbekiston ham o'zining an'anaviy madaniy boyliklarini, san'atini va musiqasini global bozorga taqdim etish uchun raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi mumkin. O'zbek kino sanoatini rivojlantirish va madaniy merosni targ'ib qilish O'zbekistonni xalqaro turizm yo'nalishlari orasida tanitishi mumkin.

* Reklama va marketing: Ushbu davlatlar turizmni rivojlantirish uchun yirik reklama kampaniyalarini o'tkazadilar. Xitoy, Koreya va Tailandning o'ziga xos turistik xususiyatlarini dunyo miqyosida targ'ib qilish O'zbekiston uchun ham samarali bo'lishi mumkin. O'zbekistonda ham xalqaro miqyosda tanishuvni oshirish uchun kuchli marketing kampaniyalarini olib borish zarur.

* Transport tizimi va infratuzilma: Xitoy, Koreya va Tailand samarali transport tarmoqlariga ega bo'lib, sayohatni qulaylashtiradi. Transport tizimi eng keng rivojlangan davlatlardan biri Xitoyni ko'radigan bo'lsak, Xitoyda turizmni rivojlantirishda transport tizimi katta ahamiyatga ega. Xitoyda eng muhim transport turlari — temir yo'l, avia, avtobus va shahar ichidagi transport tizimlari (metro, taksi) keng rivojlangan.

- **Tezkor temir yo'llar (bullet trains-Gaotie):** Xitoyning temir yo'l tizimi dunyodagi eng tezkor va eng katta tizimlardan biridir. Xitoyda qurilgan yuqori tezlikdagi temir yo'l tarmoqlari (tezligi o'rtacha 380-480km/soat), turistlarga bir shahardan ikkinchisiga qulay va tez sayohat qilish imkoniyatini beradi. Masalan, Pekin, Shanxay, Sian, Guangzhou kabi yirik shaharlarga sayohat qilish osonlashgan. Bu transport turi sayohat qilishni arzon va qulay qiladi, bu esa turizmni rag'batlantiradi, turistlar sonini oshishiga olib keladi.

- **Havo yo'llari:** Xitoyda aeroportlar soni ko'p va ular ko'plab xalqaro va ichki parvozlarni amalga oshiradi. Pekin, Shanxay, Guangzhou, Chengdu kabi shaharlarda yirik xalqaro aeroportlar mavjud bo'lib, bu Xitoyga kelgan turistlar uchun qulaylik yaratadi. Xitoyning o'ziga tegishli aviakompaniyalari, masalan, **Air China, China Eastern, China Southern**, nafaqat Xitoy ichida, balki butun dunyoda sayohat qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

- **Avtobus va metro tizimi:** Katta shaharlar, ayniqsa Pekin, Shanxay, Guangzhou va boshqa shaharlarda transportning samarali tizimlari mavjud. Bu tizimlar nafaqat aholi uchun, balki turistlar uchun ham qulay va arzon. Shahar ichidagi sayohatni osonlashtiradi, va turistlarga diqqatga sazovor joylarni osongina ko'rish imkoniyatini beradi.

- **Avtomobil va ijaraga olish:** Xitoyda avtomobil ijarasi juda ommalashgan. Turistlar, ayniqsa katta shaharlarda va turistik hududlarga sayohat qilishda avtomobilni ijaraga olib, mustaqil sayohat qilishlari mumkin.

O'zbekiston ham o'zining transport infratuzilmasini yanada rivojlantirib, sayohatni qulay qilish uchun yangi loyihalarni amalga oshirishi kerak.

* Shahar turizmi va mavsumiy sayohatlar: Koreya va Tailand kabi mamlakatlar o'zlarining shahar turizmi va mavsumiy sayohatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirganlar. O'zbekiston ham shaharlar va tabiatni qo'shib, to'rt fasl turizmini rivojlantirishi mumkin.

Shunday qilib, Xitoy, Koreya va Tailandning muvaffaqiyatli turizm strategiyalarini o'rganish va ulardan o'rnak olish O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu strategiyalarni

amalga oshirish, mamlakatning global turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa: O'zbekistonning turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish zaruriyati katta ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar yordamida mehmonxona xizmatlarini modernizatsiya qilish, yangi turistik yo'nalishlar yaratish, transport va infratuzilmani yaxshilash, ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish mumkin. Bunday tajribalarni joriy etish O'zbekistonni global turizm bozorida raqobatbardosh qilib, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga katta hissa qo'shadi. Turizm sohasini rivojlantirish uchun mamlakatda infratuzilmani yaxshilash, xususan, transport tizimini modernizatsiya qilish va turistik xizmatlar sifatini oshirish zarur. Shuningdek, O'zbekistonda turizmni yanada kengaytirish uchun maxsus turistlar uchun paketlar va madaniy tadbirlar tashkil etish ham foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov, S. (2020). O'zbekiston turizmining rivojlanishi: Xorijiy tajriba va istiqbollar. Toshkent: O'zbekiston Noshir.
2. Yuldashev, M., & Abdurahmonov, D. (2019). Turizm va iqtisodiyot: Xalqaro tajribalar va O'zbekiston. Tadbirkorlik va iqtisodiy taraqqiyot, 12(3), 45-56.
3. Zhang, X. (2018). The role of tourism in national economic growth. Journal of Tourism Economics, 15(2), 102-115.

**KORPORATIV BUYURTMACHILAR TOMONIDAN TURIZM XIZMATLARINI XARID
QILISH JARAYONINI SODDALASHTIRISH YO'LLARI**

Qurbanov Shohboz Lutfillayevich

BMA magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot korporativ buyurtmachilar tomonidan turizm xizmatlarini xarid qilish jarayonini soddalashtirish uchun sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qo'llaniladigan usullarni tahlil qiladi. Xorijiy tajribalarga asoslanib, maqola turizmدا innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini ko'rsatadi. Sun'iy intellektning shaxsiylashtirilgan xizmatlarni yaratish, xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejashdagi roli yoritilgan. Tadqiqotda, shuningdek, xavfsizlik va maxfiylik masalalari ham ko'rib chiqilib, ularni hal qilish uchun texnologik yondashuvlar taklif etiladi. Korporativ buyurtmachilar uchun onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali xarid qilish jarayonini tezlashtirish va soddalashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Umuman olganda, tadqiqot turizm xizmatlarini xarid qilish jarayonini yanada samarali va tejamkor qilish uchun texnologiyalarni joriy etishning afzalliklarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: korporativ buyurtmachilar, turizm xizmatlari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish, onlayn platformalar, xavfsizlik, maxfiylik.

Kirish: Bugungi kunda turizm sohasida korporativ buyurtmachilar tomonidan xizmatlar xarid qilish jarayoni juda muhim o'ringa ega bo'lib, ko'plab tashkilotlar va kompaniyalar bu jarayonni yanada samarali va tejamkor qilishga intilmoqda. Korporativ sayohatlar va biznes safari kabi xizmatlar talabining ortishi, shuningdek, sayohatlar rejalashtirishda tezlik va samaradorlikni ta'minlash zarurati, turizm xizmatlarini xarid qilish jarayonining soddalashtirilishini taqozo etmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va innovatsion yechimlar yordamida xaridlarni soddalashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari mavjud. Bunday texnologiyalar yordamida korporativ mijozlar uchun turizm xizmatlari taqdimoti, rejalashtirish va xarid qilish jarayonlari yanada tezlashadi, shuningdek, xarajatlar kamayadi va xizmatlar sifatini yaxshilashga erishiladi. Shu bilan birga, korporativ xaridlarni soddalashtirish orqali turizm kompaniyalari raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish va biznes jarayonlarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ushbu tadqiqotda, korporativ buyurtmachilar tomonidan turizm xizmatlarini xarid qilish